

FARZANDIM MENING QUVONCHIM

Alikulova Mohigul G'anisher qizi

*Surxondaryo viloyati Denov tumani 10-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti
metadisti*

***Annotasiya:** Ushbu maqolada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berish lozimligi, boshqa ota-onalar farzand tarbiyasiga yo'l qo'yayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari, oilani jiplashtiruvchi Alloh bergan noyob ne'mat farzandlarimning hayotimdagi va oiladagi o'rni haqida so'z olib boriladi.*

***Kalit so'zlar:**oila,baxt, tafakkur,farzand,kamolot,bug'ubori.*

Har bir oila barpo qilinarkan kelajakda farzandlarimga yaxshi ona yoki ota bola olarmikan degan tuyg'u o'tadi. Bu savollar inson uchun javobini o'zimizda bo'lgan oddiy topishmoqdek lekin ko'p insonlar bu javobni o'zlaridan emas uzoqlardan izlashadi. Ya'ni agar inson o'zini tuzata olsagina o'zi ko'proq ma'naviy bilimlar olib yuksalsa farzandlarini ham shunday tarbiyalashga va ularni Vatan kelajagi uchun yaxshi inson qilib tarbiya qila oladi.

Ko'rinib turibdiki, qadimdan ham, bugun va ertaga ham, bundan keyin ham aqlli, farosatli, tafakkuri chuqur - bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy faol farzand tarbiyalash muammosi dolzarbdir. Xalq bunday xayrli ishda o'z kuchini ayamagan fazilatli insonlami, ota va onalami sevadilar, e'zozlaydilar va hurmat qiladilar. Bunday tafakkurga boy, kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi.

Oila ana shunday tabarruk qal'adir.



Keling farzandimizning kunlik rejimlarini ko'rib chiqamiz yoki ularni bog'cha va maktabdagi odobi, ilm o'rganishga ishtiyoqi, uning qiziqishlarini aytaylik lekin ko'pchilik ota onalar bolasining qiziqishlarini o'zing nima hohlayotganligiga qarib farzandini ham shunday tarbiya qilishmoqchi bo'lishadi. Ba'zi ota-onalar esa shu savollarga javoblar topishlari kerak! Bu eng muhimlari chunki bola tarbiyasi juda nozik ularga qaysidir fikrni o'rgatib qo'yish juda oson bo'ladi. Shuning uchun shu jihatlarga e'tibor berish lozim.

Do'stlari kim, kimning farzandlari bilan o'ynayapti?

Yaxshi bolalarmi ular?

Farzandlarim vazifa bajarishida biror fandan yordam bera so'rasalar, beg'araz, siltamasdan tushuntiraman, aks holda farzandlarning har gal qandaydir yordam so'ramoqchi bo'lsalar shu voqealarni eslashadi va asizga ishonchi pasayib ketadi va sizdan hech narsa so'ramay qo'yadi, dars qilgisi kelmaydi.

Bolangiz, agar o'qituvchisining ustidan kulsa yoki uni mensimay tilga olsa, siz ham unga qo'shilib hech qachon o'qituvchisining kamchiligini qidirmang. Chunki farzandingiz ertaga u o'qituvchini nazar-pisand qilmaydigan va uning faniga qiziqmaydigan bo'lib qoladi.

Har kuni kechqurun, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda farzandingizning dars qilishini kuzatib, surishtirib borish va unga ko'maklashish zarur. Bu ishlar mening tajribamdan o'tgan mashg'ulotlar. Har kuni dars qilishga ko'nikkan bolakay keyinchalik nazoratni susaytiribroq qolganingizda ham o'zi dars qilishga odatlanib qoladi ekan.

Yuqori sinflarda ham hafta ichida vaqt topib, so'rab-surishtirib tursangiz bolamiz bizning qachon nazorat qilib qolishingizni bilmaganligi uchun darsga har kunitayyor bo'ladi va bora-bora har kuni o'z vaqtida dars qiladigan bo'ladi.

Agar ota-onalar ya'ni biz farzandimizga porloq kelajaging faqat bilim olishingda, tijorat bilan shug'ullanasanmi, muhandis bo'lasanmi, olim bo'lasanmi, shifokor yoki konstruktor bo'lasanmi, bironbir firmani boshqarasanmi - hammasi uchun bilim kerak, tafakkur kerak, aql-idrok kerak deb tushuntirsak, bolalarimiz ilm olishga tirishadigan, o'zi uchun o'zi harakat qiladigan bo'ladi.

Agar bola yengil-yelpi chuqur bilimga asoslanmagan yo'llar bilan pul topishga o'rgansa, bolaning ilm olishdan ko'ngli soviydi, hayotga yengil qaraydigan, qiyinchiliklarga chidamsiz, hayotning murakkab sinovlariga bardosh bera olmaydigan, dangasa, kelajakda oila boshqara olmaydigan, tekinxo'r bo'lib o'sadi. Shuning uchun ham farzand tarbiyasiga alohida etibor beraman.

Ular mening quvonchim, kelajagim va baxtimdir. Shu mavzular davomida har bir farzandga alohida e'tibor berilsa ular o'rtasida ichki nizolar ham kamayadi. Chunki bolalarda shunday fikrlar "meni ota-onam yoqtirmaydilar, doim urishadilar, akamni yoki opamni yaxshi ko'rishadi" degan savollar-u fikrlar yosh bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi.

Farzand eng noyob ne'mat. Ularni borligicha yaxshi ko'rishimiz va ularga ham o'zlarini qanday bo'lishsa shundayligicha yaxshi ko'rishlarini aytishimiz lozim. Farzandlarimni har bir kulgusi men uchun hamma narsadan ham chiroyliroq va eng bug'ubori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuldasheva Ma'Mura Bahtiyarovna (2020). The organization of the mental lexicon. Наука, образование и культура, (1 (45)), 44-45.

2. Bakhtiyarovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY.

3. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=4577017>

4. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.